

201

Alisher Navoiy

nomidagi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:10 (67227)

2019-yil 11-mart

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

USTOZLARINGIZ BILAN O'QING!

Qadrlagan qadr topadi YOXUD SINFDOHLARINGIZGA MUNOSABATINGIZ QANDAY?

3-bet



USHBU SONDA:

**OLMAZORLIK
BILIMDONLAR**

2-bet

**SIZ NIMAGA
QIZIQASIZ?**

3-bet

**RAVSHANBEKNING
«TANAFFUS»
DASTURI**

7-bet

Aziz o'quvchilar! Bilsangiz, sizlar bilan uchrashish doim bizga quvonch bag'ishlaydi. Bugun ana shunday ilmga chanqoq o'quvchilar tahsil olayotgan ilg'or ta'lim maskanlari haqida hikoya qilamiz.

OLMAZORLIK BILIMDONLAR

Abdullohni Turkiyada ham bilishadi

Abdulloh Abdusamadov Gulchehra opa Nabiyeva rahbarlik qilayotgan poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 326-umumta'lim maktabining 3-«V» sinfida o'qiydi. U futbol to'garagi rahbari Dilshod aka To'laganovning ham «o'ng qo'li». Sinfda sport va harbiy yo'nalish sardori. Gap shundaki, Abdulloh «Lokomotiv» futbol maktabiga qatnaydi. U 2018-yil Turkiyada o'z tengqurlari o'rtasida o'tkazilgan nufuzli musobaqada jamoasi bilan birga g'oliblikni qo'lga kiritdi. Rossianing Sochi shahrida o'tgan chempionatda ham jamoasi muvaffaqiyatli qatnashdi. Abdulloh futbol murabbiyidan o'rgangan murakkab taktik uslublarni jismoniy tarbiya darsida o'z sinfdoshlariga ham o'rgatadi. Uning sinfdosh do'sti Habibullo Fatxullayev esa kikkoksing bo'yicha shahar chempioni.

«Ertak o'qiyman hamda to'qiyman»



Aziza Abdulhayeva 5-«G» sinfda a'lo baholarga o'qiydi. U «Ayni kunlarda «Tong yulduzi» gazetasida qaysi bolalar ijodkorining ertaklarini chop etayapmiz?», degan savolimizga «Xudoyberdi

boboning», dedi hozirjavoblik bilan.

– O'zim ham ertak o'qish va to'qishni yaxshi ko'raman, – deydi Aziza. – Yozgan ertaklarimdan el suygan adiblarga o'qib bergandim, ma'qul bo'ldi. Ijod namunalirimni ona tili va adabiyot fani ustozim Zilola Nuraliyevaga yana bir bor ko'rsatib, so'ng tahririyatga olib bormoqchiman.

Jasorat – mardlarga xos

Ushbu maktabda ustoz Akrom Ahmedov rahbarlik qilayotgan 7-«H» sinfi ham bor ekan. Farrux Otajonov ana shu sinfning eng faol o'quvchilaridan.

– Xalqimizda azaldan qahramonlik, mardlik nihoyatda qadrlanadi. Ana shunday yuksak hurmat-e'tiborga loyiq bo'lish uchun inson bolaligidanoq ilm o'rganishi, sport bilan shug'ullanishi lozim. Zero, jasorat bilan kamtarlikni o'ziga shior qilgan o'g'il bola el orasida mard nomini olishi, shubhasiz. Biz shanba kunlari poytaxtimizdagi tarixiy maskanlarga, harbiy qismlarga boramiz. El-yurt manfaati yo'lida jonini fido qiluvchi fidoyi insonlar suhbatida bo'lamiz. Buning uchun ustozlarimizdan minnatdormiz.



Milliy gvardiya polkovnigi Sardor Salimov hamda nigeriyalik futbolchi Kendi Devid o'quvchilar davrasida.

Ta'lim maskanidagi navbatdagi uchrashuvda sahnaga taklif etilgan mehmon suhbatni o'quvchilarga savol berish bilan boshladi: «Osmonda Oy, yerda loy, kelayapti boy, voy, voy voy. Yuqoridagi misra she'rmi yoki...?»

Avvaliga she'r deb o'ylab qo'l ko'targanlar ko'pchilikni tashkil etdi. So'ngra, bu matnda garchi qofiya bo'lsa-da, undagi fikr, yangi so'z topilmasi o'quvchilarga ma'naviy ozuqa bo'lishi, ularning tuyg'ulari va hissiyotlariga ta'sir eta olishi nuqtayi nazaridan she'r emasligini anglashdi.



5-«A» sinf o'quvchisi Roziya Nosirova ingliz tili fanini juda yaxshi ko'rishini aytdi. U ustoz Sevara Chinaliyevadan ingliz tilini puxta bilishni xohlaydi. Nega, deysizmi? Chunki ustozni darsiga qiziqтира olgan.



Maktabda «Yosh avlod shijoati» to'garagini Nizomidin So'piyev olib boradi. Unga 1-8-sinf o'quvchilari ixtiyoriy ravishda qatnashib, o'zlarining harbiy tayyorlik salohiyatini oshirib boradilar.

topadi, yuqori cho'qqilarga ko'tariladi, – dedi ta'lim maskani direktori M. Nishonova. – O'quvchilar orasida she'r'larni ifodali o'qiydigan, rasm chizadigan, she'r yozadigan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib, o'z iste'dodini namoyon etayotgan o'quvchilar juda ko'p. Biz ustozlar esa bu kabi bilimga chanqoq yoshlarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishimiz zarur.

«Uyimizning devori» nomli kitob muallifi Feruza Adilova o'z hikoyalardan so'zlab berardi. Ularning har bir so'zini tadbirga yig'ilgan o'g'il-qizlar, ustozlar jon qulog'i bilan tingladi. So'ng, o'quvchilar tomonidan mehmonlarga bir-biridan mazmunli savollar berdi. Tahririyat xodimlari bu qadrdon nashrning 90 yoshni qarshilash arafasida o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga to'liqlanib, gazetada faoliyat yuritgan insonlarni xotirlab, katta hayajon bilan javob berishdi.



5-«B» sinf o'quvchisi Baxtiyor Agzamov, 5-«A» sinf o'quvchisi Lobar To'liqinova, 5-«D» sinf o'quvchisi Soliha Shuhratova bo'sh vaqtda rasm chizish, she'r yozish, ingliz tilini puxta o'rganish bilan band bo'lishadi.



5-«A» sinf o'quvchisi Biloliddin Murodov hamda Abdurasul Habibullayev kikkoksing sport turi bilan shug'ullanishadi. Ular turli musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritishmoqda.

O'quvchilar bilan bo'lgan muloqot nihoyatda mazmunli bo'ldi. Uchrashuv tugagach, bolalar nigohlarida aslo zerikish va charchoqni sezmadik. Aksincha, o'quvchilar o'z ijodiy ishlari haqida fikr-mulohazalarimizni bilishni istadi. O'z navbatida, biz ham bu ijodkor o'quvchilarga qimmatli maslahatlarimizni berdik. Uchrashuv nihoyasida «Uyimizning devori» kitobi faol o'g'il-qizlarga sovg'a qilindi.

Nodira NAZAROVA,
Sayyora QODIROVA

KINGA BARAKALLA, OFARIN!

Kundalik daftari – o'quvchilarning o'zlashtirishi, tartibi, xulqi, saranjom-sarishtaligini ko'rsatib turadigan oynadir. Ushbu daftarga qarab o'quvchining qanday ekanligiga baho bera olasiz.

Men o'quv yili boshida o'quvchilarning o'rtasida «Kundaligim – yorug' yuzim» tanlovini e'lon qildim. Bellashuv shartiga ko'ra, ular har hafta ko'proq a'lo baho olishlari, kundalik daftarini husnixat bilan yozishlari, tartibli bo'lishlari, namunali xulqqa ega bo'lishlari talab etiladi.

Tanlov e'lon qilingan kundan boshlab har bir bola haftalik yakunda 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallashga, «Balli!», «Barakalla!», «Ofarin!», «Ota-onangga rahmat» kabi rag'batlarni olishga harakat qilmoqda.



O'quv yili yakunida tanlov nihoyasiga yetadi. Quvonarlisi, bolajonlarni bilim olishga qiziqishini oshirishda ushbu usul qo'l kelmoqda. O'quvchilar har kuni darsga faol qatnashmoqda. Ha, aytganday, a'lochi o'quvchilarning soni kundan kunga ortib bormoqda.

Gulshod GADOYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

«Bahorga yetganlar omon bo'lsinlar», deya qishdan ham chiqib oldik. Endi buyog'i kattalarga mehnat, bolalarga rohat. Kunlar isib, ota-onangizdan ko'chaga chiqishga ruxsat tekkanidan xursandmisiz? Albatta, ayrimlaringiz «Nega?» deb hayron bo'lasiz. Chunki sizlar «Oq terakmi, ko'k terak...», chillak, lanka kabi o'yinlardan bexabarsiz. Sizga telefon va kompyuterdagi o'yinlar bo'lsa bo'ldi. Yo'q, uka-singillar, bunaqasi ketmaydi. Virtual o'yinlarni kunda 24 soat tinmay o'ynasangiz ham oxiriga yetkaza olmasiz. **Chunki ular mingta, millionta, siz esa – bitta. Ammo bolalikning zavqli damlarini megabayt kabi sotib olib ham, o'yin kabi «Start» bilan qayta boshlab ham bo'lmaydi.**

OQ TERAKMI, KO'K TERAK...

Yana bir-ikki yildan keyin o'z-o'zidan tashvishlaringiz ko'payadi, beg'am bo'lganingizda ham bo'ylaringiz o'sib, sho'xlik qila olmay qolasiz. Shuning uchun televizorni o'chiring, telefonni internet tarmog'idan uzing, quloqchinni olib ko'chaga chiqing. Do'stlaringizni chaqiring, milliy o'yinlarimizni o'ynashni boshlang. Iya, turishingizdan bilmaydiganga o'xshaysiz? Unday bo'lsa, qani, sizlarga chillak va lanka haqida qisqacha ma'lumot beraman. Boshladik!

USTOZLARINGIZ BILAN O'QING!

QADRLAGAN QADR TOPADI YOXUD SINFDOSHLARINGIZGA MUNOSABATINGIZ QANDAY?

Bu maqolani o'qishdan avval ko'z oldingizga bir zum sinfdosh do'stlaringizni keltiring. «Iye, axir ular bilan har kuni ko'rishamiz, yonma-yon o'tiramiz-ku», deysizmi? To'g'ri, maktabdagi har bir sinfni bir oilaga qiyoslasak, do'stlaringiz bilan deyarli aka-singil, opa-ukaga aylanib ulgurgansiz.



Har kun yonma-yon o'tirib, dars tayyorlaysiz, tushlik qilaisiz, dildan suhbatlashasiz. Ammo bu borada muammolar ham yo'q emas-da! Ya'ni, ba'zan ayrim tengdoshlaringiz sinfdoshlarini masxara qilib, ularning dilini og'ritishi bizning ham ko'nglimizni xira qiladi.

Agar eshitgan bo'lsangiz, xorijlik bir qizaloq Disney kompaniyasiga xat yozgan emish. Unda yozilishicha, o'sha qiz ko'zoynak taqqanligi bois, sinfdoshlari har kuni uni masxara qilishar ekan. Shu bois, u kompaniyadan ko'zoynakli bir multqahramon obrazini yaratishni so'ragan. Xullas, qandaydir yo'l bilan

do'stlariga ko'zoynak taqish uyat emasligini yoki bu insonning qiyofasidagi kamchilik hisoblanmasligini tushuntirgisi kelgan. Aytinchi, Sizning maktabingizda ham shunday noxush holatlar kuzatiladimi? Uchrab turadi, to'g'rimi? Ba'zida to'lacharoq yoki aksincha,


ozg'in bolalar ham o'rtoqlarining kamsitishlaridan xafa bo'ladi. «To'rtko'z, baqaloq, qiltiriq» kabi masxaraomuz so'zlar aslida o'sha do'stingizning ko'ngliga qanchalik og'ir botishi haqida o'ylab ko'ring. Zero, insonning jismoniy kamchiligini yuziga solishga aslida, hech kimning haqqi yo'q. Insonga yetkaziladigan ma'naviy zarur uchun esa qonunlarimizda ma'lum javobgarliklar belgilangan. Qolaversa, sizni yoki uka-singilningizni kimdir haqorat qilsa yoxud kamsitib gapirsa, jahlingizni jilovlay olmasiz-u, siz kimnidir ranjitsangiz maylimi? Xullas, ko'z ochib yumguncha o'tib ketajak o'quvchilik yillarigizdagi qadrdonlaringizni o'z vaqtida qadriga yeting. Toki, o'rtangizdagi do'stlik abadiy bo'lsin!



QIZLARXON

CHILLAK

Yerga kichik chuqurcha kavlanadi va uning ustiga uzunligi bir qarich yog'och qo'yiladi. O'yinchilardan biri sopqon (uzunligi 45–50 sm.li tayyoq) bilan qarich yog'ochni chuqur ustidan siltab, yuqoriga irg'itadi va u yelka balandligiga kelganda, qattiq urib yuboradi. Shundan so'ng, sopqonni chuqurcha ustiga qo'yadi. Boshqa o'yinchi urilgan qarich yog'och ortidan yugurib, uni oladi va chuqurcha ustidagi sopqonni mo'ljalab uloqtiradi. Agarda maydondagi o'yinchi qarich yog'ochni sopqonga tekkiza olmasa, jarima to'laydi. Jarima uzoqqa urib yuborilgan qarich yog'ochga bo'lgan masofani nafasni bo'lmay «A-a-a...» degan ovoz chiqarib yuborishdan iborat bo'ladi. Chillak har yerda turli xil o'ynaladi. Sizga omad yor bo'lsin.



LANKA

Tangadan biroz kattaroq, yungi o'siq teridan kesib olinib, ichki tomoniga 5–10 gr qo'rg'oshin metallidan yopishtirilib, lanka tayyorlanadi. Uni yasab berishni ota-onangiz yoki aka-opangizdan iltimos qiling. Lanka o'yinining bir necha turi bo'lib, bolalar o'ng yoki chap oyoq bilan lankani tushirib yubormasdan kim ko'p tepish va sakrab, bir oyoqni oldinga ko'tarib, ikkinchi oyoqni uning tagidan o'tkazgan holda kim ko'p tepish bo'yicha musobaqalashadi.

Bu o'yinlarni maktabda ham o'ynashingiz mumkin. Masalan, Navro'zi ayyom arafasida ta'lim dargohingizda xalq o'yinlari musobaqasini o'tkazing. Bunda sizga jismoniy tarbiya o'qituvchilari va Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilot yetakchisi ko'mak beradi.

Bobo-buvingizdan yana qanday xalq o'yinlari borligini so'rab, o'rganing. Bu ham salomatligingizga, ham kayfiyatigizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bahorni bolalik bilan o'tkazing, yolg'on o'yinlar bilan emas!

Otabek BAKIROV,
Toshkent viloyati, Angren shahridagi
27-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi

SIZ NIMAGA QIZIQASIZ?

Aziz o'quvchilar, bo'sh vaqtingizda nimalar bilan mashg'ulsiz? Ushbu savolga Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchilaridan quyidagicha javob oldik:

– Men Sevinch Abduvaliyeva matematika, tarix va adabiyot fanlarini



yaxshi ko'raman. Darsdan keyin «Yosh rassomlar» to'garagida ustozimdan rasm chizish sirlarini qunt bilan o'rganyapman. Rasm chizishda, eng avvalo, ranglarga alohida e'ti-



bor berish lozim. Agar ranglardan noto'g'ri foydalanilsa, chizilgan rasm kutilganidek chiqmaydi.

– Men Odina Toshtemirova bo'sh vaqtimda ertak kitoblari o'qiyman. Shu kunga qadar «Qari bilganini pari bilmas» nomli ertak, «Mehnatning noni shirin» kabi she'riy kitoblari o'qiganman. Shu bilan birga, ona tili to'garagiga qatnashaman. Ustozim Munavvar opa Normurodovadan



ona tilining sir-asrorlarini puxta o'rganyapman.

– Sarvinoz Ernazarova bo'laman. «Yosh kitobxonlar» to'garagiga qatnashaman. Ayniqsa, Zulfiyaxonimning she'rlarini o'qish jon-u dilim.

– Men Ruxshona Eshonqulova geografiya va botanika fanlariga



qiziqaman. Shu bois, «Kashfiyotchi» to'garagiga qatnashaman. Ustozim Shohista Xoliqberdiyevadan O'zbekistonning foydali qazilmalari to'g'risidagi bir-biridan qiziq ma'lumotlarni o'rganaman. Shu bilan birga, «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini o'qib boraman.

Aziz o'quvchi! Sizlar bo'sh vaqtingizda nimalar bilan mashg'ulsiz?

Sunnatilla USANBOYEV,
Sirdaryo viloyati,
Boyovut tumanidagi
34-umumta'lim
maktabining tasviriy
san'at fani o'qituvchisi

«Bilimlar bellashuvi»yu fan olimpiadalarida aksariyat o'quvchilari g'olib bo'layotgan Navoiy viloyati, Tomdi tumanidagi 21-umumta'lim maktabiga Mayrambek Jumashov rahbarlik qiladi.

TOMDILIK G'OLIBLAR QUVONCHI

Bu yil qozoq tili fani ustozlari Dometken Jalg'asbayeva va ingliz tili fani ustozlari Elza Shaxanova shogirdlari Asemay Akimova, Ayjamal Jandullayeva esa qozoq tili bo'yicha o'tkazilgan fan olimpiadasida g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

o'tkaziladigan «Yosh qutqaruvchilar» musobaqasida maktabimiz jamoasi 1-o'rinni, «Quvnoqlar va zukkolar» bellashuvida bilim maskanimizning «Erekshe» jamoasi ham faxrli o'rinni qo'lga kiritdi, – deydi Mayrambek aka. Termalar – xalq og'zaki ijodining



– Maktabimizda iste'dodli, bilimdon va sportchi o'quvchilar ko'p. Jumladan, 3-sinf o'quvchisi Uraz Jauinbayevni olaylik. U yosh bo'lishiga qaramay, shaxmat bo'yicha tuman va viloyat miqyosida bo'lib o'tgan musobaqalarda muntazam g'oliblikni qo'lga kiritib, biz ustozlarni juda quvontirdi. Tennis bo'yicha 9-sinf o'quvchisi Aydana Aralbekova tengdoshlari orasida 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, an'anaviy

azaliy an'analaridan sanaladi. Sung'at Jumaxanovning shogirdi 10-sinf o'quvchisi Asemay Akimova «Iqtidorli yoshlar» ko'rik-tanlovining terma yo'nalishida tumanda bor iqtidorini namoyish etib, 1-o'rinni egalladi.

Ta'lim maskanida tahsil olayotgan har bir o'quvchi yuqoridagi tengdoshlari singari ulkan maqsadlarni ko'zlagani rost. Biz ham tomdilik g'oliblar quvonchidan mamnun bo'ldik.

Ozoda TURSUNBOYEVA

MEHRIDARYO MUALLIMA

«Odamlarga bir yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, bug'doy ek, o'n yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, tok ek, umrbod yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, ustozlik qil.»

Dunyoda ota-ona duosini olish, el aro hurmat-ehtiroimga sazovor bo'lish, shogirdlar qalbidan munosib joy olish oson ish emas. Bu tinimsiz mehnat evaziga qo'lga kiritiladi.



biologiya fani o'qituvchisi Dilbar Saidazimovaga havas qilib, ushbu kasbni tanlagan.

Ustoz faoliyati davomida o'quvchilar qalbiga halollik, mehnatsevarlik, mardlik kabi sof insoniy tuyg'ularni jo etib, ularni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashga harakat qildi. Bugun muallimaning shogirdlari yurtimizning turli jabhalarida samarali mehnat qilmoqda.

Mahmuda opa Ortiqova ayni kunda 3-«A» sinfiga rahbarlik qilmoqda. Iqtidorli o'quvchilar Sherzod Muslimov, Gulzoda Salohiddinova, Ziyoda Rustamova, Sora Mirqobilova, Botirjon Tursunboyev sinfning faxri hisoblanadi. Xalq ta'limi a'lochisi Mahmuda opa Ortiqovaning o'zi bir paytlar saboq bergan Nurilla Mahkamov, Sharofiddin Mavlono'jayev kabi mehribon shogirdlari bilan yonma-yon mehnat qilayotgani uni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga undaydi.

Ana shunday mehridaryo muallimlardan biri Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 8-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mahmuda opa Ortiqovadir. Aslida, bu hayotda inson qaysidir kasbni tanlashdan avval kimgadir havas qilib, unga o'xshashga intiladi. Mahmuda opa ham o'zi o'qigan Uchtepa tumanidagi 236-umumta'lim maktabida o'qib yurgan kezaridayoq

biologiya fani o'qituvchisi Dilbar Saidazimovaga havas qilib, ushbu kasbni tanlagan.

Ustoz faoliyati davomida o'quvchilar qalbiga halollik, mehnatsevarlik, mardlik kabi sof insoniy tuyg'ularni jo etib, ularni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashga harakat qildi. Bugun muallimaning shogirdlari yurtimizning turli jabhalarida samarali mehnat qilmoqda.

Mahmuda opa Ortiqova ayni kunda 3-«A» sinfiga rahbarlik qilmoqda. Iqtidorli o'quvchilar Sherzod Muslimov, Gulzoda Salohiddinova, Ziyoda Rustamova, Sora Mirqobilova, Botirjon Tursunboyev sinfning faxri hisoblanadi. Xalq ta'limi a'lochisi Mahmuda opa Ortiqovaning o'zi bir paytlar saboq bergan Nurilla Mahkamov, Sharofiddin Mavlono'jayev kabi mehribon shogirdlari bilan yonma-yon mehnat qilayotgani uni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga undaydi.

SAYOHATLAR FASLI

– Ustoz, «Kitoblar olami» degan katta kitob do'koniga olib boring.

– Respublika bolalar kutubxonasiga borsak-chi...

Maroqli sayohatlarni jon-u dilidan suyuvi o'quvchilarimning taklif va istaklarining oxiri ko'rinmaydi. Bir kuni ularga yuqoridagi ikkala ma'naviyat maskaniga ham borishimizni e'lon qilganimda, bolajonlar sevinib ketishdi. Dastlab, Respublika bolalar kutubxonasiga bordik. O'quvchilarim bu yerda kitoblarning sehri olamiga tushib qolganday bo'lishdi, go'yo. Ular kutubxonada turli adabiyotlar bilan tanishishdan tashqari, ajoyib bir tadbirning guvohi ham bo'lishdi. Ya'ni, bolalar ziyo maskaniga taklif etilgan mutaxassis shifokordan qiziqarli ma'lumotlar olishdi.

«Ana endi sayohatimizning ikkinchi manziliga yo'l olamiz», deya bolajonlarni kutubxonachi opalar bilan xayrlashishga chorladim. O'quvchilarim «Ur-re» deya chug'urlashib, maktabimiz ma'muriyati tomonidan tashkillashtirilgan avtobusga joylashishdi. Nihoyat, poytaxtimizdagi Darxon ko'chasida joylashgan ko'rkam va muhtasham «Kitoblar olami» do'koniga yetib keldik. Bu yerda kitobsevar bolalar bir-biridan chiroyli kitoblarni ko'rib, aqlari shoshdi. Men esa o'zlarini qiziqtirgan badiiy adabiyotlarni mahkam bag'riga bosgan o'quvchilarimni ko'rib, juda sevindim.

Mavjuda MUHAMMEDJANOVA,
poytaxtimizning Yashnobod
tumanidagi 226-umumta'lim maktabining
3-«B» sinf o'qituvchisi

Muzaffar AHMEDOV



BAXTNING SO'LMAS GULI



ONA SOG'INCHI

Sog'inchi! Bu – tuyg'u insonlarni bir-biriga bog'lab turuvchi ko'zga ko'rinmas ip. Juda ko'p do'stlar-u qardronlar o'rtasidagi bu ip qandaydir bahona-yu sabablarga ko'ra uzilib ketishi mumkin, ammo ona-bola orasidagi bu rishta hech qachon uzilmaydi. Chunki hech kim hech kimni sog'inmaydi, sog'inolmaydi, onasi kabi.

E'TIBORSIZ QOLGAN E'TIBOR

Odam uchun kutishdan og'ir narsa yo'q, deymiz. To'g'ri, o'zimiz bironi bir soat kutib qolsak, dod deb yuboramiz. Ammo onalarni qarang, farzandlari har qancha hayallab qolishsa ham kutaveradi. Yarim tungacha mijja qoqmay kutsa ham, zorianmaydi.

– Yaxshi keldingmi, bolam, – deydi. Farzand esa uyidagi bunday buyuk e'tiborga parvo qilmasdan, ko'chadan yana qayerlardandir va kimlardandir e'tibor qidiradi. Bu ko'rinmas e'tiborni ko'rish uchun nahotki odamga o'n juft ko'z, anglash uchun esa bir qop aql kerak bo'lsa?!

MEHRI BO'LAKCHA

Har qanday ona ham oddiy inson. Ammo uning mehri bolaning bolidan ham totli. Qolaversa, ona mehri boshqa biron kishidan topib bo'lmaydi. Shuning uchun bolalar validasidan ajralib qolganidan yig'lasalar, topilmas mehrdan ajralgani uchun ho'ng-raydilar.

IMKON VA VAQT BAHONAGA ARZIMAYDI

Ustoz dedi: – Qo'lingdan kelgancha onangga yaxshilik qilib qol. «Erta-indin yoki imkoniyatim bo'lganida qilaman», desang, balki hech qachon qilolmay qolishing mumkin. Chunki imkoniyat uchun imkon, fursat ajratish uchun vaqt topilganida, onang bo'lmay qolsa-chi?!

Topilgan imkon va vaqtning qadri sariq chaqaga ham arzimay qoladi, o'shanda.

YAXSHILIKLAR BULOG'I

Inson uchun dunyodagi barcha yaxshiliklarni bir butun, deb olsak, kishi shuning teng yarmidan ko'pini onalaridan ko'radi. Shuning uchun bu mo'tabar zotlarni yaxshiliklar bulog'i desa ham bo'ladi.

Shuhrat RO'ZIYEV



Termiz shahridagi 4-umumta'lim maktab-internatining 8-sinf o'quvchilari o'rtasida bo'lib o'tgan «Senga mehrim yo'g'rilgan gulni sovg'a qilaman» nomli tanlovdan lavha.



Sirdaryo viloyatidagi 43-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf rahbari Malohat opa Abdullayeva boshchiligidagi o'tkazilgan «Balli, mohir qizlar!» ko'rik-tanlovidan lavha.

Telegram kanalimizga kelgan xabarlardan

Lesson 10

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

SUPPLY THE SUITABLE FORM OF VERBS IN BRACKETS

1. If he _____ (change) jobs, he would be a lot happier.
2. If I were you, I _____ (tell) her, that I love her.
3. Even if he _____ (ask) them, they wouldn't have agreed to come.
4. If he had not threatened him, he _____ (not leave)
5. I _____ (not trust) her, if I were you.
6. Sardor _____ (not go) with him, if he had known Donyor would behave so irresponsibly.
7. I wouldn't have been able to do it unless she _____ (not help) me.
8. If Aziz _____ (get up) earlier, he wouldn't have been late for work.
9. If we _____ (want) to spend the day in London, we would have bought a day pass.
10. If you _____ (spend) less on clothes, you would be able to save money.



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

THE PROUD LITTLE APPLE BLOSSOM

It was the month of May, but the wind still blew cool, for the sun was not yet ready to shed his warmest rays on the waiting earth.

Yet some of the birds had come, and more were on their way, and many beautiful blossoms were already showing their pink and white blooms, so that from bush and tree, field and flower, came the glad cry, «Spring is here! Spring is here.» Now, it happened that a young princess rode by a beautiful orchard in full bloom, and she stopped to pick a branch of apple blossoms to take to her palace. All who saw the apple blossom praised its beauty and fragrance until the blossom became proud, and thought that beauty was the only valuable thing in the world. But as the apple blossom looked out upon the field she thought, «Not all of the plants are rich and beautiful, as I am, some seem poor and plain.» And she noticed a little, common, yellow flower, which seemed to lift up its sunny head and grow everywhere.

The apple blossom said to the plain little flower, «What is your name?»

«I am called the dandelion,» replied the little flower.

«Poor little plant,» said the apple blossom. «It is not your fault; but how sad you must feel to be so plain and to bear such an ugly name.»

Before the little plant could reply a lovely little sunbeam came dancing along and said, «I see no ugly flowers. They are all beautiful alike to me.» And he kissed the

apple blossom; but he stooped low and lingered long to kiss the little yellow dandelion in the field.

And then some little children came tripping across the field. The youngest laughed when they saw the dandelions and kissed them with delight. The older children made wreaths and dainty chains of them. They picked carefully those that had gone to seed, and tried to blow the feathery down off with one breath, making joyous wishes.

«Do you see,» said the sunbeam, «the beauty of the dandelion?»

«Only to children are they beautiful,» said the proud apple blossom.

By and by an old woman came into the field. She gathered the roots of the dandelions, out of which she made tea for the sick, and she sold others for money to buy milk for the children.

«But beauty is better than all this,» still said the proud little apple blossom. Just then the princess came along. In her hand she carried something that seemed like a beautiful flower.

She covered it carefully from the wind. What do you think it was? It was the feathery crown of the dandelion. «See!» she said, «how beautiful it is! I will paint it in a picture with the apple blossoms.»

Then the sunbeam kissed the apple blossom, and as he stooped low to kiss the dandelion the apple blossom blushed with shame.

Then the sunbeam kissed the apple blossom, and as he stooped low to kiss the dandelion the apple blossom blushed with shame.

Then the sunbeam kissed the apple blossom, and as he stooped low to kiss the dandelion the apple blossom blushed with shame.

Then the sunbeam kissed the apple blossom, and as he stooped low to kiss the dandelion the apple blossom blushed with shame.



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

Hans Christian Andersen



ERKIN VA OBOD VATAN

Bobolardan merossan,
Momolardan merossan.
Biz yoshlarga ishonchsan,
Taqdirimsan, baxtimsan,
Erkin va obod Vatan!

Shoshqin soyingga yetmas,
Bog'ingdan qushlar ketmas.
Mendek qizing bittamas,
Taqdirimsan, baxtimsan,
Erkin va obod Vatan!

Dilnura ILYOSOVA,
Farg'ona viloyati, Furqat tumanidagi
29-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi

MOYCHECHAGIM, MOYCHECHAK

Ilk bahorning elchisi,
Bahor fasiin belgisi.
Moychechagim, moychechak,
Ko'z yoshingni art chechak.

Bahor guli qizg'aldoq,
Bo'ldi misli oyboldoq.
Moychechagim, moychechak,
Ko'z yoshingni art chechak.

Qoqi guli ochildi,
Yon-atrofga sochildi.
Moychechagim, moychechak,
Ko'z yoshingni art chechak.

Dianur ERKINOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi
11-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim
maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

ISTAGIM

Istagim shu dunyoda,
Hamma omadli bo'lsin.
Yurtimiz bolalarning,
Quvonchi bilan to'lsin.

Onamizning umrlari,
Chinor umridek bo'lsin.
Oллоh nazar solgan yurt,
O'zbekiston bor bo'lsin.

Sarvara FAYZULLAYEVA,
Navoiy viloyati, Navbahor tumanidagi
34-umumta'lim maktabining
3-sinf o'quvchisi

USTOZNI XOTIRLAB

Tursunboy aka Adashboyev bilan ilk uchrashuvimiz taxminan 1987-yillarga to'g'ri keladi. O'shanda «O'qituvchi» nashriyotining kimyo-biologiya tahririyatida muharrir bo'lib ishlardim.

Menga boshlang'ich sinflar uchun «Tabiatshunoslik» dars-

ligini nashrga tayyorlash vazifasi topshirilgan edi. O'sha vaqtlarda darsliklar ruschadan o'zbekchaga tarjima qilinar, tabiiyki, undagi lavha va she'rlar ham asosan, rus ijodkorlariniki bo'lardi. Darslikni tahrir qilar ekanman, diqqatimni dala, bug'doy, non haqidagi mavzular o'ziga tortdi. Berilgan matndagi she'rlar rus dalasi va noni haqida edi. Shu sababli uni o'zbekchalashtirishga qaror qildik va muallif roziligini ham oldik.

Endi don va non haqidagi she'rlarni matnga moslash kerak edi. Shunda bo'lim boshlig'imiz Azizxo'ja akaga «Yulduzcha» nashriyotidagi bolalar shoirlaridan yordam so'raylik», degandim, u kishi darhol Tursunboy akaga qo'ng'iroq qildilar. O'sha paytda Tursunboy aka «Yulduzcha» (hozirgi «Cho'lpon») nashriyotida ishlardi. Men u kishini sirtidan yaxshi tanisam-da, salom-alikdan nariga o'tmangandim.

Tursunboy aka meni o'z odatiga ko'ra kulimsirab kutib oldi. So'ng, besh-oltita mashinkada yozilgan ijod namunalari uzatdi. Bu aynan men kutgan she'rlar edi. Tursunboy aka sodda va samimiy til bilan ona, dala, non haqidagi she'rlarni qog'ozga tushirgandi. Shunda shoshganimdan:

– Ustoz, ammo qalam haqi to'lolmasak kerak, – dedim. Tursunboy aka qalin qoshlarini chimirib turdilar-da: – Jilla qursa, kitob berarsiz, – dedi.

– Albatta, – dedim shoshib. Buni qarangki, keyinroq o'yab qarasam, respublikada hamma bolalar taniyidigan shoirga shunday debman-a. O'shanda ham Tursunboy aka ranjimadi. Bundan tashqari, bu ularning

hazili ekanligini, ustoz shoir hech qachon qalam haqi uchun she'r yozmasligini keyin bildim. Oradan uch-to'rt oy o'tib, «Tabiatshunoslik» kitobidan ikki nusxa olib, Tursunboy akaga topshirdim. U kishi yosh bolalar kabi quvondi. Shu-shu ular bilan aka-uka bo'lib ketdik.



Tursunboy akadagi to'g'riso'zlik, soddalik, hazilkashlik, birovni tanisa-tanimasa yordam qo'lini cho'zish, mardlik, tantilik hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Men bilgan, qalbindan chuqur o'rin egallagan ustoz ijodkorimiz ana shunday ulug' inson edi.

MEN BILGAN TURSUNBOY AKA

Oradan yillar o'tib, taxminan 2008–2010-yillarda men bolalar ijodkori sifatida yozganlarimni matbuotda e'lon qila boshladim. Kunlarning birida Tursunboy aka tahririyatimizga kirib keldi.

O'sha vaqtda pedagogika bo'limida «Bolalar antologiyasi» nashrga tayyorlanayotgan edi. Bo'limni Safo Ochil boshqarardi. Tursunboy aka antologiyani tayyorlashda mas'ullardan biri edi. Gap orasida Safo aka mening ijodimga ham to'xtab o'tdi. Shunda Tursunboy aka:

– Men Bahromjonni muharrir sifatida yaxshi bilaman. Ijodidan ham xabarim bor, – deb qoldi.

– Yaqinda bir turkum she'rlarini ko'rgandim, menga ancha ma'qul, – dedi Safo aka: – Bolalar ijodkorlari ko'p bo'lgani yaxshi. Rang-baranglik bo'ladi. She'rlaringizni bersangiz, men ham bir ko'rib chiqar edim, – dedi Tursunboy aka. Men xonamdagi stolim tortmasidan ellikka yaqin she'rlar yozilgan daftarni olib, ularga berdim. Ustoz she'rlarga bir ko'z yugurtirib chiqdi-da, ikki kundan keyin kelishini aytib, qo'lyozmani olib chiqib ketdi.

Va'da qilingan kun Tursunboy aka kirib keldi. Bolalarning katta shoiri she'rlarim haqida nima deyarkin, degan fikr menga sira

Bahrom AKBAROV,
bolalar shoiri

tinchlik bermasdi. Tursunboy aka qo'lyozmani uzata turib: – Mag'zi to'q she'rlaringizni belgilab qo'ydim. Ayrimlari tahrirtalab ekan, tuzatdim. Men yana kelaman, ungacha ko'rib qo'ying, – dedi.

Qo'lyozmani olib varaqlay boshladim. Ko'piga yaxshi baho qo'yilgan bo'lsa-da, ba'zilarida so'zlar almash-tirilgandi. Rostini aytsam, she'rlarim nazarimda juda zo'r edi. Chunki shu vaqtgacha faqat maqto'v eshitardim-da. Shu sababli ham Tursunboy akadan biroz ranjdim. Oradan uch-to'rt kun o'tdi. Bu orada ustoz ikki marta kelib-ketdi. She'rlarim haqida men ham indamadim, u ham. Yozganlarimni takror o'qir ekanman,

ustozning tahriri nihoyatda to'g'ri ekanligiga ishonchim orta bordi va bekorga xafa bo'lganimni tushundim.

Oradan bir oycha vaqt o'tdi. Bir kuni Tursunboy aka shoshilinch keldilar-da:

– She'rlaringizni jamlab Abdurahmonga olib chiqib bering. To'plamga sizning ham she'rlaringizni kiritmoqchimiz, – deb aytdi. Hayron bo'lib qoldim. Ana, ustozning mehri. Men bo'lsam o'zimcha xafa bo'lib yuribman. Shu gapning ertasi kuni Abdurahmon Akbarga (u «Cho'lpon» nashriyotida ishlardi) ijod namunalari olib chiqib berdim. She'rlarim «Bir qishloq bolalari» nomli to'plamda chiqib ketdi. Shu voqeadan so'ng, Tursunboy aka muntazam ijodimni kuzatib borar, yozgan she'r, ertak va boshqa nasriy hikoyalaringiz o'z bahosini berardi. «Jonzotlar qo'shig'i», «Mitti botir», «G'alati sinov» kabi ertaklarimni bevosita o'zlari tahrir qilgan edi.

Men Tursunboy akaning shogirdi ekanligimdan har doim faxrlanib yuraman va ijodimga ularning nigohi bilan qarashga intilaman. Bu esa menga hamisha kuch-quvvat, va mas'uliyat bag'ishlaydi...

Navoiy viloyati, Xatirchi XTBga qarashli 54-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi Ravshanbek Imomnazarov «Tanaffus» dasturi loyihasini ishlab chiqdi.

RAVSHANBEKNING «TANAFFUS» DASTURI



Tashabbuskor o'quvchining ushbu dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi «Umimiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 140-sonli Qaroriga muvofiq maktablarda o'quv tarbiya jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, mashg'ulotlarni kunlik nazorat qilishni takomillashtirish va muvofiqlashtirish, o'qituvchilarni o'z vaqtida darslarga qatnashishini ta'minlash maqsadida ta'lim tizimiga tatbiq etiladi. Qolaversa, ushbu dastur maktabda dars mashg'ulotlari davomiyligidan to'liq foydalanish va belgilangan tartibga o'qituvchilarning amal qilishi, shuningdek, navbatchi ustozning vaqtini to'g'ri taqsimlash, tanaffuslarda nazoratni to'la-to'kis olib borish imkonini beradi.

Ravshanbek mazkur dastur bo'yicha «Mening ijod mahsulim» o'quvchi-yoshlar media festivalida qatnashib, sertifikatga ega bo'ldi.

Nurbek QIDIRALIYEV

MUTLAQ G'OLIB BO'LDI

Maktabimizda harbiylashtirilgan sinflar bo'lib, uning o'quvchilari maxsus forma kiyishadi. Kelajakda shu sohani puxta egallashga ahd qilgan o'g'il bolalar sportning u yoki bu turi bilan shug'ullanishadi. Ularning shahdi, shuningdek, bilim olishga bo'lgan ishtiyoblari biz ustozlarni behad quvontiradi.



Yaqinda o'quv dargohimizda ajoyib musobaqa bo'lib o'tdi. 5-8-sinf o'quvchilari o'rtasida harbiy qurol-aslahalarni qismlarga bo'lish va qayta yig'ish bo'yicha o'tkazilgan bellashuvda iqtidorli o'quvchilarimizdan biri Ulug'bek Ikromov g'olib bo'ldi. 5-«B» sinfda harbiy ta'limni a'lo darajada o'zlashtirayotgan bu yosh o'g'lon tumanimizdagi «Olimp-lider» klubi a'zosi. Sportning bir necha turi bilan shug'ullandigan Ulug'bek klubda tashkil etilgan «Men harbiy bo'laman» mavzusidagi ko'rik-tanlovda ham mutlaq g'olib bo'lib, I darajali diplom bilan taqdirlandi. Bo'lajak Vatan himoyachisi orzusiga erishishi uchun nafaqat jismonan, balki ma'nan yetuklik zarur ekanligini yaxshi biladi. U ona tili va adabiyot, matematika, ingliz tili kabi fanlardan a'lo baholarga o'qib, tengdoshlariga har tomonlama namuna bo'lmoqda.

Har doim bu izlanuvchan o'quvchining harakatlarini kuzatar ekanman, uning timsolida bo'lajak Vatan himoyachisini ko'raman.

Moxin OMAROVA,

Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 153-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ISHQIBOZLAR OLQISHIN OLDI

Orangizda ko'pchilik bolalar muz ustida uchib, musaffo havodan to'yib-to'yib nafas olishni yaxshi ko'radi. Ayniqsa, bu mashg'ulot yaqin do'stlar bilan yanada maroqli kechadi.

Shu kunlarda o'lkamiz bo'ylab bahor nafasi kezib yurgan bo'lsa-da, mamlakatimizning turli go'shalarida qishki sport turlari bo'yicha ko'plab musobaqalar, ajoyib-u g'aroyib sport festivallari tashkil etilmoqda. Quvonarlisi, bu orqali farzandlarimiz sog'lom turmush tarzi bilan oshno bo'lib, o'z iqtidorlarini namoyon etmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Ice City» sport-ko'ngilochar majmuasida qishki sport turlarining eng nafis yo'nalishi bo'lmish figurali uchish bo'yicha festival tashkil etildi.

O'zbekiston Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, Qishki sport turlari assotsiatsiyasi, sportning qishki va murakkab texnik turlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabi hamda «Ice City» sport-ko'ngilochar majmuasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu musobaqada qariyb 60 nafar o'smir va qiz o'z mahoratini namoyish etdi.

Figurali uchish bo'yicha mamlakat chempionlari, ko'plab xalqaro turnirlarning g'olib va sovrindorlari ishtirokidagi badiiy chiqishlarni shu oqshom sport majmuasiga yig'ilgan ko'plab ishqibozlar olqishlar bilan qarshi oldi. Ayniqsa, yosh qizlar ijrosidagi betakror harakatlar ko'pchilikda katta taassurot qoldirdi.

Festival yakunida har bir ishtirokchi tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

SPORT SEN BILAN!

Bu dunyoda inson borki, doimo o'zi va yaqinlari sog'lom bo'lishini istaydi. Ammo buning uchun sport bilan muntazam shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tamaki chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish kabi zararli illatlardan uzoq bo'lish talab etiladi. Ayniqsa, har kuni tongda badantarbiya mashqlarini bajarish salomatlik uchun koni foydadir.



Bu mashg'ulotni hayotning mazmuniga aylantira olgan ko'plab yosh sportchilar kuni kecha gimnastika bo'yicha respublika ixtisoslashtirilgan Olimpiya xazinalari bolalar-o'smirlar sport maktabida jam bo'lishdi. Boisi, shu kuni ushbu maskanda «Sport

sen bilan!» shiori ostida ommaviy sport-sog'lomlashtirish tadbiri o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan tashkil etilgan tadbirda turli yoshdagi 250 ga yaqin yurtdoshlarimiz sog'lomlashtirish gimnastikasi mashqlarini bajardi.

Ushbu ommaviy tadbir sportning bir nechta turini o'z ichiga olgan bo'lib, uni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad farzandlarimiz salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida sportni ommalashtirishdan iboratdir.

Sa'dullo TURSUNOV

Gazetamizning 2019-yil 8-sonidagi «Maktabdan chempion chiqdi» nomli maqoladagi 14-DIUMning raqami 17-DIUMI deb o'qilsin.

Ko'ngillari misli bahor

To'qson bilan to'qnashdi dil,
Bekor o'tib ketmabdi yil.
«Tong yulduzi» yulduz misol,
Ko'kdan turib bergay savol.

– Sahifamni har bitta jon,
Varaqlasa topmas ziyon.
Kimlar unda qoldirdi iz,
O'quvchidir hamrohimiz...

Bayram tabrigi

Ona va bola



Nodirabegim UMEDOVA,
Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 3-«A» sinf o'quvchisi

Qirlarda ko'klam



Shahlo NURALIYEVA,
Beshariq tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

Ayoz ketdi



Farida YUZBOYEVA,
Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi 29-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

Bahor keldi



Ko'lda suzish gashiti o'zgacha



Farzona KOMILJONOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 40-umumta'lim maktabi o'quvchilari

Gullar jilosi



Farzona ABDUXALLOQOVA,

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 40-umumta'lim maktabi o'quvchilari



Bosh muharrir Feruzaxon,
Quvnoqligi sizga ayon.
Gazetada o'z izi bor,
Tongda suygan yulduzi bor.

Feruzaxon noib erur,
Yaxshilikka soyib erur.

Manzuraxon elga doston,
Shukur qilib yashar har on.

Nargizaxon izlar «xato»,
Qilmasin, deb, qizlar xato.

Nodiraning kitobi bor,
Hikmat so'rang, javobi bor.

Ozodaning daftari bor,
Sizga aytar gaplari bor.

Nigoraning nigohi bor,
Qalami-yu siyohi bor.

«Sayyora»dir Sayyoramiz,
Uni topmay ovoramiz.

Xosiyatga boy Xosiyat,
Doim qilar yaxshi niyat.

Xullas, bular birjon erur,
Gazetaga bog'bon erur.
Ona degan nomlari bor,
Ko'ngillari misli bahor.

Yurakda yo'qdir g'amlari,
Qutlug' bo'lsin bayramlari!

Bu – yigitlar mehr guli,
Bastakori AXTAMQULI.



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

2	11	20
4	9	32
7	8	49
4	10	????

? o'rnidagi sonni toping.



Bu shaklni shunday qilib ikkiga bo'lish kerakki,
natijada ikkita bir xil shakl paydo bo'lsin.

Internet manbalari asosida SHERALI TOSHNIYOZOV tayyorladi